



MIQDOR SO'ZLAR BILAN KELUVCHI NUTQIY CHEGARALANGAN AYRIM BIRLIKLAR

Djurayev Rasuljon Sobirjonovich

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani

16-umumiy o'rta ta'lim maktabi

ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur ilmiy maqolada miqdor so'zlar bilan keluvchi nutqiy chegaralangan aytim birliklar haqida batafsil ma'lumotlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Miqdor so'zlar, ona tili, tilshunoslik, nutq, so'z, ta'lim uslubi.*

Hamma narsada chegara bo'lgani kabi nutqiy faoliyatdagi so'zlar doirasida, ularning qo'llanilish o'rinlarida ham chegara mavjud. Tilimizda chegara talab qiluvchi birliklarning chegarasi maqol, matal, ibora yoki ma'lum bir so'z (yoki shakl) bilangina belgilanishi mumkin. Yakka holda ma'no anglatmay, ma'lum bir so'zlar bilan birikma hosil qilib ma'nosi oydinlashadigan yoki doim bir turdagi so'zlar bilan (masalan, ot yoki sonlar) keladigan, nutqiy jarayonda bir nechtagina qo'llanilish shakllari mavjud bo'lgan birliklar mavjud. Masalan, miqdorni bildiruvchi (bir) so'z bilan kelib, birikma tarzida shakllanuvchi birliklar tilimizda anchayin ko'p bo'lib, quyida shu kabi ayrim birliklarga to'xtalamiz.

Mahal [a. muhlat, fursat, zamon, vaqt] O'TILda bu birlik faqat aniqlovchi so'z bilan qo'llanadi deyilgan bo'lib, u payt, vaqt so'zlariga sinonim sanaladi. Mazkur birlikning hech mahal, har mahal, tong (umuman payt oti) mahali, bir (umuman sanoq son) mahali kabi qo'llanilish shakllari mavjud. Mahal birligi o'zi birikib kelayotgan so'zdan keyin kelib, olmosh (hech mahal), ot (tong mahali), son (bir mahal) kabilar bilan birikish xususiyatiga ega, ya'ni ularga oid so'zlarni o'ziga tobe qilib keladi hamda ushbu birlik chekka, atrof singari ma'nolarni beruvchi mahal so'ziga omonim sanaladi. Muhlat, zamon kabi ma'nolarda qo'llaniluvchi mahal birligi ko'pincha miqdor bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanadi. Bir mahal tuzilishida qo'llanganda gumon, taxmin yoki kuchaytiruv-ta'kid ma'nolarida ishlatiladi: Bir mahal hamma yer jimjit bo'lib qoldi. O' Umarbekov, Sevgim, sevgilim.

Finjon [dastali piyola, chinni krujka. qo'llanishi jihatidan biroz eskirgan so'zlar sirasiga kiradi hamda ko'p hollarda uning miqdorni anglatuvchi so'zlar bilan qo'llash mumkin. Nutqda bir finjon tarzida qo'llanilish shakli mavjud bo'lib, boshqa shakllarda deyarli uchramaydi. Bu esa bir tomondan ushbu birlikning qo'llanish davriga nisbatan izohlanadi. Miqdorni bildiruvchi so'zlar bilan ifodalanishi uning ham bevosita son bilan birikishini izohlaydi.

Finjon o'zbek tilidagi piyola so'ziga tenglashtirilsa, uning istalgan turkumdagi birliklar bilan kelishini, birika olishini anglatadi, biroq uning sof o'zbek tiliga oid so'z emasligi boshqa turkumdagi so'zlar bilan erkin qo'llana olmasligini bildiradi:



Xayrlashayotib bir finjon tutdi. Ular sopli piyolani shunday deyishadi. Nutqiy jarayonda birikma hoida, xususan, miqdorni anglatuvchi so'zlar bilan birikma hosil qilib keladigan birliklar ko'p miqdorni tashkil etadi: bir zum, bir shingil, bir damlik, bir talay, bir xil; Bunday birliklarning nutqiy jarayondagi qo'llanilish shakllari, birikuvchanlik xususiyatlari, uning o'ziga xos uslubiy xossalari, tuzilishi, turkum nuqtayi nazaridan turlari o'rganilmagan soha sanaladi. Umuman olganda, bu kabi birliklar, nafaqat birikma tarzida, balki so'zlarning tuzilishga ko'ra barcha turlarida (sodda, qo'shma, juft, takror so'zlar)da, ibora, maqol, matallar tarkibida uchraydi. Nutqiy jarayonga ma'nosi ayonlashuvchi, o'zining ma'lum xossalariga ega, birikuvchanlik va qo'llanilishi chegaratalab birliklar hozirgi kunda nutqiy chegaralangan birliklar atamasi ostida o'rganilib, o'z tadqiqot obye'ktimizga aylangan.

Ma'lum shakllar bilangina qo'llanilish shakllariga ega nutqiy chegaralangan birliklarning ma'nosini ochish, ularning turkum jihatdan tahlil etish, bu birliklar asosida ilmiy ish qilish muhim ahamiyatga deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov N. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi Toshkent, O'qituvchi 1999 y.
2. Nositxo'jayev S. Ma'naviyat asoslari Toshkent, Turon-Iqbol 2009 y.